

# Journal of Natural Science

*No1 (6)  
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н-к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**NUROTA DAVLAT QO`RIQXONASINING EKOTURISTIK  
IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI**

*Sanaeva Lola Shukurboevna-b.f.n., o`qituvchi*

*Mannanov Davronjon Muxtor o`g`li- 1- kurs talaba*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

Nurota davlat tog`-o`ng`oq qo`riqxonasi Navoiy va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh bo`lgan Jizzax viloyatining Forish tumanida, Nurota tog`ining markaziy qismida joylashgan.

Qo`riqxonada 1975 yilda tashkil etilgan. Qo`riqxonada davlat ilmiy-tadqiqot muassasasi bo`lib, uning asosiy vazifasi noyob tabiiy majmualarni, Nurota tog` tizimining hayvonot va o`simliklar olamini himoya qilishdir.

Nurota qo`riqxonasi O`zbekiston Respublikasi qishloq va suv hojaligi Vazirligi huzuridagi O`rmon xo`jaligi bosh boshqarmasining qo`riqxonalar, milliy tabiiy bog`lar va ovchilik xo`jaligi boshqarmasi tarkibiga kiradi. Qo`riqxonaning maydoni 17752 gani tashkil etadi. Qo`riqxonada davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi.

Bahorda iliq va ochiq havo tez-tez davomli sel bilan almashib turadi, ko`p hollarda tumanlar, momoqaldiroq, haroratning sovib ketishi va qor yog`ishi kuzatiladi. Yoz davomli, issiq va quruq. Kuzda iliq va quruq ob-havo shabadli tumanli va yog`ingarchilik ko`p ob-havo bilan almashib turadi.

Nurota tog` tizmasi Pomir-Oloy bilan Tyan-Shan tog` majmualari va Turon past-tekkisligining orasidagi o`tish hududida joylashgan. Tog` tizmasi Turkiston tog` tizmasidan shimoli-g`arbga deyarli 200 km masofaga cho`zilib, Qizilqum sahrosi ichkarisiga chuqur kirib boradi. Tog` tizimining cho`qqisi hayotboshi tog`i (dengiz satqidan 2169 metr balandlikda) Nurota qo`riqxonasining hududida joylashgan. Asosan proterozoy, paleozoy qatlamlari va ohaktoshlardan hosil bo`lgan Nurota O`rta Osiyoning eng qadimiy tog` tizimlaridan biridir.

Nurota qo`riqxonasining hududida 78 oiladan 814 xil yuqori o`simliklar aniqlangan. Eng ko`p turlar soni bilan murakkabguldoshlar (96 tur), dukkakkilar (78) va boshqalar (76) namoyon bo`ladi. Qadimiy o`rta-er dengizi turlari, asosan tog`li O`rta Osiyo, shu jumladan 24 xil endemik turlar ko`pchilikni tashkil qiladi.

Nurota florasining eng yorqin endemigi och-yashil anura, o`rta tog` qatlamlarining tosh-shag`al qiyaliklarida ko`p uchraydigan, murakkabguldoshlar oilasining yagona endemik turi hisoblanadi. qo`riqxonada endemik o`simliklar labguldoshlardan ko`rimsiz qo`ziquloq, tumtog` marmarak, tog`buznoq va uchpoyali oqtusha, murakkabguldoshlardan Shurovskiy karragi, Nurota o`lmaso`ti ham ko`p uchraydi. O`zbekiston Qizil kitobiga qo`riqxonada florasining 29 turi shu jumladan 3 tur shirach, 3 tur Anzur piyoz, 5 tur lola, 5 tur astragal va boshqalar kiritilgan.

Qo`riqxonada florasida o`tsimon o`simliklar ko`pchilikni tashkil qiladi, bular ayniqsa hayotiy davrlari qisqa, iliq va namli bahori va davomli issiq quruq yozi bo`lgan O`rta Osiyoning iqlimiga zo`r moslashgan bir yillik efemerlar va ko`p yillik efemeroidlar. Butalar va yarim butalar o`ziga xos hayot shaklini tashkil qiladi. Sug`d shuvog`i va ingichka yorilgan lepidolofa, nurota lepidolofasi, o`ziga xos tikanli yostiqsimon o`simliklar, ya'ni qarmaqdoshlar tog` kserofitlari (kirpio`tlar, astragallar va boshqalar) shular jumlasidandir.

Nurota tog` tizmasi yong`oq va o`rikning ko`p, qadimiy navlari kelib chiqishining muhim markazi. Ushbu qimmatbaqo genofondning muhofazasi Nurota qo`riqxonasining asosiy vazifalaridan biri.

Nurota qo`riqxonasi hududida 21 turdagi reptiliyalar uchraydi. Eng ko`p uchraydiganlari turkiston agamasi, Sariq ilon, gulli poloz, rangbarang poloz, ko`lvor ilon. Reptiliyalarning 3 turi O`zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan va kamdan kam uchraydigan – kulrang echkiemar, O`rta Osiyo kobrasi va ko`ndalang chiziqli bo`ritish ilonlardir.

Nurota qo`riqxonasining ornitofaunasi juda boy va o`ziga xos. Bu erda 196-tur qush borligi aniqlangan, ulardan 103-turi qo`riqxonada uya soladi. qo`riqxonada uya solgan qushlarning 10-turi va uchib o`tuvchi qushlarning 8-turi O`zbekiston QIZIL KITOBiga shundan 2-turdagi doimiy va 3-turdagi uchib o`tuvchi qushlar Xalqaro Tabiatni muhofaza qilish Xamjamiyatining Qizil Kitobiga kiritilgan.

Bu erda 14 tur yirtqich qushlar uya soladi va 16-tur uchib o`tuvchi qushlar qo`riqxonada qishlaydi. Qo`riqxonada har yili 8-10juft burgut, 8-14 juft kichik burgut, 5-7 juft boltayutar 1-juft ilonburgut 30 juftgacha oqboosh qumay, 15-20 juft gacha tasqara 1 juft itolqi uya soladi. Bu turlarning ko`pi respublika «Qizil Kitob»iga kiritilgan. Bundan tashqari qo`riqxonada O`zbekiston va halqaro «Qizil Kitob»lariga kiritilgan noyob qushlarning ko`pgina turlarini migratsiya ya'ni ko`chish vaqtida uchratish mumkin.

Nurota qo`riqxonasining hududi nafaqat go`zal tog`li manzaralari, o`ziga xos hayvonot va o`simlik dunyosi bilan balki ko`pgina ta'rixiy-madaniy obidalari bilan ham o`ziga jalb etadi. Bu hudud qadimdan odamlar yashaganligi uchun o`ziga xos murakkab va boy tarixga ega. Buning isboti bo`lib turli xil arxeologik topilmalar, petrogliflar qabrlar va megalitlar, o`rta asrlarning ta'rixiy obidalari, madaniy manzaralar, qadimiy irrigatsion inshootlar, yong`oq va mevali daraxtlarning xilma-xilligi xizmat qiladi.

Yuqoridagilarning barchisi Nurota davlat qo`riqxonasida ekoturizmni rivojlantirish uchun asosiy omillardan bo`lib hisoblanadi. Biroq hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagi muammolarni hal etish lozim:

- Shu paytgacha qo`riqxonada hududidaaniq turistik marshrutlar yo`qligi va mavjudlarining xam juda kam reklama etilganligi;
- Turistik yo`nalishda davlat to`lovlarining kamaygan miqdorda to`lanishi va boshqa imkoniyatning borligiga qaramasdan joylardagi tadbirkorlarning ushbu soxaga kam e'tibor qilinganligi;
- Hududning iqlimi tabiiy o`zgarishlarga kuchli bog`liq ekanligi;
- Qo`riqxonada xodimlarining turizm yo`nalishida tashrif buyuruvchilarni boshqaruvini to`lalgicha o`z zimmasiga olmaganligi. Natijada turistlar va kelib-ketuvchilarning estetik, ekologik savodxonligining etishmasligi oqibatida atrof muxitning kuchli ifloslanishi, maxalliy aholi xayotiga va sog`ligiga havf soluvchi xolatlarning ryy berishi (yong`in chiqishi, suvning ifloslanishi, chiqindilar va x.k....);
- Qo`riqxonalar xududiga chet ellik turistlar uchun sayoxatlarni tashkil etishda ortiqcha rasmiyatchiliklarning mavjudligi;
- Ichki va tashqi turizm rivojlanishida cheklovlar mavjud bo`lib unga bilimi va malakaning etishmasligi, turizmga bir tomonlama yondashuv, esdalik sovg`alar, folklor va boshqa ko`ngil ochar mashg`ulrotlarni tashkil etilishidagi xatti-xarakatlarning etarli emasligi;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Л.Санаева, Т.Холдаров, Перспективы развития туризма в Узбекистане, CULTURAL AND HISTORICAL HERITAGE IN THE CONTEXT OF A MODERN OUTLOOK FORMATION. Peer-reviewed digest (kollektiv monograf) published following the results of the XCI International Research and Practice Philosophy, Cultrurology, Physical aqnd Sports (London, November 05-November 10, 2014)
2. L. Sanaeva, Jizzax viloyatining tbiy hududlarida ekoturizmni rivojlantirish muammolari, “Инновацион техника ва технологияларни қўллашнинг устивор йўналишлари: тажрибалар, муаммолар, истиқболлар”. Иқтидорли талабаларнинг илмий техник анжумани маъруза тезислари тўплами. Жизза, 17 март, 2015 йил
3. Хайитбойев R., Хайитбойев K., Худойбердийев U.X. «Tabiatdan foydalanish iqtisodi». Samarqand, 2004.
4. Eshtayev A.A., Axmedov I.A., Aliyeva M.T. «Turizmni rejalashtirish». Toshkent, 2007.